

## SOXTA TADBIRKORLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK

Ravshanov Surat Botir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Korrupsiyaga qarshi

kurashish va komplaens nazorati yo'nalishi magistri

ravshanovsurat03@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10171572>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada soxta tadbirkorlik jinoyatini sodir etgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jinoiy jazolar, jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi holatlari haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Jinoiy javobgarlik, faoliyat, tijoratchi, tashkilot, foyda, fond, mulkdor, korxonalar.

Soxta tadbirkorlik jinoyati korxonalar yoki boshqa tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi tuzishmaning qonunda, o'z Nizomida belgilangan faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqadi<sup>1</sup>.

Ushbu jinoyat Nizomda ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko'zlamasdan korxonalar yoki tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarni tuzishda ifodalanadi. O'zR FK 40-moddasiga muvofiq, foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni maqsad qilib olmagan (tijoratchi bo'lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo'lishi mumkin. Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxonalar va qonunlarda nazardan tutilgan boshqacha shaklida tuzishi mumkin. Tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklida tashkil etilishi mumkin.

O'zR FK 41-moddasida esa yuridik shaxs o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyat maqsadlariga muvofiq, fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi. Yuridik shaxsning maxsus huquq, layoqati, uning ustavi, nizomi yoki qonun hujjatlari bilan belgilangan bo'ladi. Har bir tuzilgan korxonalar yoki boshqa tadbirkorlik tuzilmasi asosan o'z nizomida qo'zg'atilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanish kerak. Soxta tadbirkorlikda esa tuzuvchilar o'z nizomida ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini mutlaqo ko'zlamaydi, balki korxonalar boshqa maqsadlarga tuziladi. Korxonani tuzish (vujudga keltirish) faktining o'zi to'la yoki qonunga asoslangan bo'ladi, uning nizomi, zaruriy ta'sis hujjatlari qabul qilinadi, ro'yxatdan o'tkaziladi, biroq, ishni boshlash vaqti kelganda, bunday korxonalar o'z nizomida ko'rsatilgan faoliyat bilan umuman shug'ullanmaydi va nizomida ko'rsatilmagan faoliyat bilan shug'ullanadi<sup>2</sup>.

Nizomda belgilangan faoliyatni amalga oshirish maqsadining yo'qligi ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslikda namoyon bo'ladi. Nizomda ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko'zlamasa korxonalar yoki boshqa tadbirkorlik tuzilmasi tuzilgan paytda e'tiboran jinoyat tamom bo'lgan deb topiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi 1994 yil 5 maydagi qonunining 1-moddasiga muvofiq, bankrot bo'lish deganda qarzdorning majburiyatlari mol-mulkidan oshib ketganligi sababli, tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to'lash yuzasidan kreditorlarning

<sup>1</sup> B.Ibratov tadbirkorlik huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsifiya etilgan TOSHKENT-"MOLIYA"-2001

<sup>2</sup> B.Ibratov tadbirkorlik huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsifiya etilgan. TOSHKENT-"MOLIYA"-2001

talablarini qondirishga qodir emasligi, shu jumladan budjetga va budjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlarni ta'minlashga qodir emasligi tushuniladi<sup>3</sup>.

Kreditorning talablarini bajarish muddati boshlangan kundan e'tiboran xo'jalik yuritish subyekti uch oy mobaynida ularni bajara olmayotganligi yoki bajarishga qodir emasligining muqarrarligi sababli joriy to'lovlarni to'xtatib qo'yilishi xo'jalik yurituvchi subyekt bankrot bo'lishining tashqi alomati hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyoriy ravishda tugatilayotganida uning o'zi bankrot bo'lganligi rasman e'lon qilganidan keyin u bankrot bo'lgan hisoblanadi.

Ushbu jinoyat yuzasidan 16 yoshga to'lgan va soxta korxonaga tuzgan har qanday shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin. Tadbirkorlik qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik:

- a) belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishdan bo'yin tovlab tadbirkorlik faoliyatining biror turi bilan shug'ullanish oqibatida;
- b) tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat olgan bo'lsada, qonunda belgilangan majburiyatlarni buzganligi sababli kelib chiqadi<sup>4</sup>.

Binobarin, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmay, foyda yoki daromad olish maqsadida savdo yoki vositachilik faoliyati bilan shug'ullanish jinoiy javobgarlikning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 186-moddasiga ko'ra: "Nazorat qilinmaydigan foyda (daromad) olish maqsadida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishdan bo'yin tovlab, savdo yoki vositachilik faoliyati bilan shug'ullanish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, uch yilgacha muayyan huquqsan mahrum bo'lib, eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorida jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud mol-mulk musodara qilinib, olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Nazorat qilinmaydigan foyda (daromad) olish maqsadida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishdan bo'yin tovlab, savdo yoki vositachilik faoliyatini amalga oshirish:

- a) xavfli residivist tomonidan;
- b) ancha miqdorda;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib, sodir etilgan bo'lsa, uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilib, eng kam oylik ish haqining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki mol-mulk musodara qilinib, uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi"<sup>5</sup>.

Agar ana shu harakatlar, ya'ni savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanish ko'p miqdordagi foyda (daromad) olgan holda uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, mol-mulk musodara qilinib, uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi<sup>6</sup>.

Bundan tashqari qonunda soxta tadbirkorlik uchuy ham javobgarlik belgilangan. "Soxta tadbirkorlik" deb nomlangan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 179-moddasida belgilanishicha: "Soxta tadbirkorlik, ya'ni ustavda ko'rsatilgandek faoliyatni amalga oshirish

<sup>3</sup> Bankrotlik to'g'risidagi qonun 1994 y lex.uz

<sup>4</sup> Tadbirkorlik huquqi (maxsus qism) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT 2002.

<sup>5</sup> Jinoyat kodeksi. lex.uz

<sup>6</sup> Mualliflar jamoasi tomonidan M.H.Rustambayevning umumiy tahriri ostidagi "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar" - T.: «TDYul» nashriyoti, 2010.

maqsadini ko'zlamasdan ssudalar, kreditlar olish, foyda (daromad)ni soliqlardan ozod qilish soliqlarni kamaytirish yoki boshqacha mulkiy manfaat ko'rish maqsadida korxonalar va boshqa tadbirkorlik tashkilotlarini tuzish, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud mol-mulki musodara qilinib, besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi"<sup>7</sup>.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda tadbirkor xohlaydimi yo'qmi boshqa subyektlar bilan raqobatda bo'ladi. Raqobat tovar ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish jarayonining uzluksiz rivojlanishi va taraqqiy etishini ta'minlaydigan bir vositadir. Tadbirkorlar raqobatda yengilib, sinib qolmaslik uchun doimo o'z faoliyati natijasining sifatli, xaridorgir bo'lishini va shu asosda ko'proq foyda ko'rishni ko'zlab tinimsiz mehnat qiladi. Ammo ayrim hollarda omadsiz tadbirkorlar to'lovga qobiliyatsiz bo'lib, kasodga uchraydilar. Kasodga uchragan tadbirkor uni yashirib, o'z manfaati yo'lida o'zga shaxsga, ya'ni kreditorlarning manfaatlariga zarar yetmasligi, balki bor haqiqatga yuzma-yuz kelishi kerak. Aks holda unga nisbatan javobgarlik qo'llaniladi.

Binobar, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 181-moddasida, "Xo'jalik yurituvchi subyektning haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumot va hujjatlarni taqdim etish, buxgalteriya hisobotlarini buzib ko'rsatish yo'li bilan iqtisodiy jihatdan o'zining to'lovga qodirligini yo'qotganligi yoki iqtisodiy nochorligani boshqacha tarzda qasddan yashirish kreditorlariga ko'p miqdorda zarar yetishiga sabab bo'lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari, yoxud mol-mulk musodara qilinib, besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi" deb belgilangan<sup>8</sup>.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Nizomda ko'rsatilgan faoliyat bilan shug'ullanmaslik va qarz kredit olish foyda (daromadni) soliqlardan ozod qilish (pasaytirish) yoki boshqa mulkiy foyda ko'rish jinoyat maqsadining zaruriy alomati hisoblanadi.

Jinoyatning obyektiv tomoni- nizomda ko'rsatilgan faoliyat turini amalga oshirishni ko'zlamasdan korxonalar yoki boshqa tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni tuzishda ifodalanadi.

### References:

1. B.Ibratov tadbirkorlik huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT-"MOLIYA"-2001.
2. Bankrotlik to'g'risidagi qonun 1994 y lex.uz.
3. Tadbirkorlik huquqi (maxsus qism) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT 2002.
4. Jinoyat kodeksi. lex.uz.
5. Mualliflar jamoasi tomonidan M.H.Rustambayevning umumiy tahriri ostidagi "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar" - T.: «TDYuI» nashriyoti, 2010.

<sup>7</sup> Jinoyat kodeksi. lex.uz

<sup>8</sup> Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. 4-jild: Jinoyat

to'g'risida ta'limot. OTM uchun darslik. – T.: «TDYuI» nashriyoti, 2010.

6. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. 4-jild:  
Jinoyat to'g'risida ta'limot. OTM uchun darslik. – T.: «TDYuI» nashriyoti, 2010.

